




INTERNATIONAL CONGRESS OF POSTGRADUATE
STUDENTS FROM ALTAI TO ANATOLIA

JUNE 28-30, 2024 / KAYSERİ, TÜRKİYE

PROCEEDINGS BOOK

2024



International Congress of Postgraduate Students from ALTAI to ANATOLIA

28-30 June, 2024, Kayseri, TÜRKİYE



PROCEEDINGS BOOK

EDITORS:

Assoc. Prof. Dr. Dilafruz MUHAMMADIEVA
Dilbar HAYDAROVA

ISBN: 978-625-6997-34-9

by

AKADEMİK PAYLAŞIM PLATFORMU PUBLISHING HOUSE®

All rights of this book belong Akademik Paylaşım
Platformu Publishing House
Authors are responsible both ethically and juridically
APP Publications – 2024©
Issued: 16.07.2024

CONGRESS ID

CONGRESS TITLE

International Congress of Postgraduate Students from ALTAI to ANATOLIA

DATE and PLACE

28-30 June, 2024 Kayseri, TÜRKİYE

ORGANIZATION

UBS-Institute of International Scientific Research and Strategy Development Association, Türkiye
Talas Municipality, Türkiye
Journal of Turkic World Women's Studies

CONGRESS CHAIRS

Dr. Taner GÜR
Türkiye

CONGRESS COORDINATORS

Azerbaijan Coordinator, **Leyla Babazade** /Azerbaijan National Academy of Sciences
Kazakhstan Coordinator **Dana Kurshzhan** S.Asfendiyarov Kazakh National Medical
University
Kyrgyzstan Coordinator: **Mehmet ALBAYRAK**/ Kyrgyzstan-Turkey Manas University
Uzbekistan Coordinator **Dilbar Haydarova** / Ali Shir Navoi University
Türkiye Coordinator: **Sümeyye YAVUZ** / Erciyes University

PARTICIPANTS COUNTRY

Türkiye, Kazakhstan, Azerbaijan, Kyrgyzstan, Uzbekistan, Romania, Pakistan,
Nigeria, England

PRESENTATION

Oral presentation

NUMBER OF PARTICIPANTS

(Türkiye-25, Other Countries - 25)

EVALUATION PROCESS

All applications have undergone a double-blind peer review process

SCIENTIFIC BOARD MEMBERS

- Prof. Dr. Yücel Gelisli** , Gazi University, / Türkiye
Prof. Dr. Osman Kubilay GÜL, Cumhuriyet University/ Türkiye
Prof. Dr. Nihayet BAYRAKTAR, Harran University/ Türkiye
Prof. Dr. Hajar HUSEYONA , Azerbaijan Pedagogical University
Prof. Dr. Kholmanova Zulhumor, Ali Shir Navoi University/ Uzbekistan.
Prof. Dr. Ömer Faruk SÖNMEZ, Tokat Gaziosmanpaşa University/ Türkiye
Assoc. Prof. Dr. Seyhan ÇANKAYA, Selcuk University/ Türkiye
Assoc. Prof. Dr. Ivaylo Staykov , New Bulgarian University, Sofia, Bulgaria
Assoc. Prof. Dr. Erhan YOSKA, Erciyes University / Türkiye
Assoc. Prof. Dr. Akmatbekova Zhanara Adylbekovna, Cusup Balasagyn Kyrgyz National University, Bishkek, Kyrgyzstan
Assoc. Prof. Dr. Duyshekeeva Ayna Talgarbekovna (Duyshekeeva Aina Talgarbekovna)
Cusup Balasagyn Kyrgyz National University, Bishkek, Kyrgyzstan
Assoc. Prof. Dr. Zibagul Ilyasova, Gumilov University/ Kazakhstan
Prof. Dr. Lecturer Nurdin USEYEV. Kyrgyzstan-Turkey Manas University. Bishkek, Kyrgyzstan
Assoc. Prof. Dr. Haitov Shuhrat, director of "History of Uzbekistan TV", Uzbekistan
Assoc. Prof. Dr. Jorakoziyev Nadir, advisor to the rector of Tashkent State University of Uzbek language and literature, Uzbekistan
Assoc. Prof. Dr. Tulabayeva Rukhsora, Tashkent State Uzbek Language and Literature Univ, Uzbekistan
Dr. Asanov Eldar, Academy of Sciences of Uzbekistan, Institute of Archaeology, Uzbekistan
Dr. Nebil KARADUMAN, Erciyes University / Türkiye
Dr. Marlen ADILOV, Eurasian University, Kazakhstan
Dr. Almaz AHMETOV, Azerbaijan Medical Academy, Azerbaijan

ORGANIZING BOARD MEMBERS

- Congress Organising Committee Chairman
Assist. Prof. Dr. Polat EYÜP, Erciyes University / Türkiye
Congress Organising Committee Members
Assoc. Prof. Dr. Almasbek MAULENOV, Al Farabi University/ Kazakhstan
Dr. Zhuldyz SAKHI, UBS Institute / Türkiye
Dr Mushtari Holmurodova, Tashkent State Institute of Uzbek Language and Literature, Uzbekistan

International Congress of Postgraduate Students from **ALTAI to ANATOLIA**

*28-30 June, 2024
Kayseri, TÜRKİYE*



CONGRESS PROGRAM

(Face to Face)

Adres:

Talas Belediyesi Meclis Salonu, Yenidoğan Mahallesi, Pazar Caddesi No:10 38280 TALAS/KAYSERİ.

Opening Ceremony

Date: 28-30 June, 2024

Time: 10.00

National Anthem

Pause of Respect

Speeches:

Mustafa YALÇIN

Mayor of Talas Municipality

Congress Honorary President

Dr. Taner GÜR

Erciyes University

Congress President

Assoc. Prof. Dr. Dilafruz MUHAMMADIEVA

Alisher Navoi Tashkent State University

Plaque presentation

Opening Panel

Dilbar HAYDAROVA

Ali Şir Nevai Universitesi, Özbekistan

ÖZBEK KÜLTÜRÜNDE MORTU İMGESİ

Berrin ÖZER

İstanbul Üniversitesi, Türkiye

DÖNEMİN İKİ ESERİNİN TANIKLIĞINDA SELÇUKLU DÖNEMİ KONYASINDA
İLK SEMA TÖRENLERİNİN BETİMLENMESİ (ŞİPEHSALAR ve MENAKİBÜL
ARİFİN)

Exhibition Opening

(Sergi Açılışı)

“Traces of Turkic Culture” “Türk Kültüründen İzler”

Elnur EGAMOV

Özbekistan Yaratıcı Sanatçılar Birliği Üyesi

(Member of the Union of Creative Artists of Uzbekistan)

Muzaffer ERAYDIN

MEB, Türkiye

Özgecan ERAYDIN

Şiraze Sanat Evi, Türkiye

Coffee Break 12 .00

International Congress of Postgraduate Students from ALTAI to ANATOLIA

28.06.2024

HALL-4 / SESSION-1



ANKARA LOCAL TIME



10⁰⁰ : 12⁰⁰

Zoom Meeting ID: 857 9307 8951

Zoom Passcode: 282930

HEAD OF SESSION: Prof. Dr. Kholmanova Zulhumor

Authors	Affiliation	Presentation title
Shamshoda RUSTAMOVA	<i>Karshi State University, Uzbekistan</i>	O'zbek Tilida So'Zlashuvchi O'Smir Bolalar Leksikoni Va Ularning Qo'LLanish Maqsadi ЛЕКСИКОН УЗБЕКСКОЯЗЫЧНЫХ ДЕТЕЙ-ПОДРОСТКОВ И ЦЕЛЬ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
Prof. Dr. Kholmanova Zulhumor, Musurmankulova Shaxribon	<i>Tashkent State Uzbek Language and Literature University, Uzbekistan</i>	Özbekçe-Türkçe Deyimlerin Paralel Korpusunun Dilbilimsel Esasi LINGUISTICAL BASIS OF THE PARALLEL CORPUS OF UZBEKI-TURKISH IDIOMS
Habiba Ergasheva	<i>Alisher Navoi Tashkent University, Uzbekistan</i>	Shakllarga Ko'Chgan Tuyg'Ular (Faxriyor She'rlari Haqida Mulohazalar) EMOTIONS MOVED INTO SHAPES (REVIEWS ON VETERAN'S POEMS)
Muqaddas XOJIMURODOVA	<i>Tashkent State University, Uzbekistan</i>	Hozirgi Davrda Yadroviy Xavfsizlik Masalalari: Tahdidlar Va Xalqaro Hamkorlik CONTEMPORARY NUCLEAR SECURITY ISSUES: THREATS AND INTERNATIONAL COOPERATION
Xurshida YULDASHEVA	<i>Tashkent State University, Uzbekistan</i>	Abu Ali Ibn Sinoning "Yorug'lanish" Asaridagi Ta'limotlar Tahlili ANALYSIS OF TEACHINGS IN THE WORK OF ABU ALI IBN SINO "ENLIGHTENMENT"
Farhad BADALOV Prof. Dr. Güner ÖZKAN	<i>Erciyes University, Türkiye</i>	AZERBAIJAN-IRAN RELATIONS IN THE SHADOW OF THE CASPIAN SEA AND KARABAKH WARS
Assoc. Prof. Dr. Aina T. Duyshekeeva Assoc. Prof. Dr. Jhanara A. Akmatbekova	<i>Kyrgyz National University, Kyrgyzstan</i>	Трансформация Радиовещания Постсоветского Кыргызстана (1990-2000 Гг.) TRANSFORMATION OF RADIO BROADCASTING IN POST-SOVIET KYRGYZSTAN (1990-2000)
Tölgön SABIRBEKOV	<i>Manas University, Kyrgyzstan</i>	Dijital Sanatta Kirgiz Toplumundaki Sorunlarin Yansinmasi: Tatyana Zelenskaya'nin Resimleri Örneğinde REFLECTION THE PROBLEMS OF KYRGYZ SOCIETY IN DIGITAL ART: IN CASE OF TATYANA ZELENSKAYA'S PAINTINGS
Mihai Marinescu	<i>Universitatea din București, Romania</i>	ARTIFICIAL INTELLIGENCE: THE TRANSFORMATIVE TECHNOLOGY OF OUR TIME

(All speakers required to be connected to the session 10 min before the session starts)

Moderator is responsible for ensuring the smooth running of the presentation, managing the group discussion and dynamics.

**ABU ALI IBN SINONING “YORUG’LANISH” ASARIDAGI TA’LIMOTLAR
TAHLILI**

***ANALYSIS OF TEACHINGS IN THE WORK OF ABU ALI IBN SINO
“ENLIGHTENMENT”***

Khurshida YULDASHEVA,

1st year basic doctoral student of Tashkent State University of Uzbek
Language and Literature named after Alisher Navoi

Annotatsiya

Ushbu maqolada mashhur ajdodlarimizdan biri, qomusiy olim, shayx ur-ra'is Abu Ali ibn Sinoning falsafiy-filologik asarlaridan bo'lmish “Yorug'lanish (Azhaviya)” risolasi tahlil qilingan. Chunonchi, olim asarida keltirilgan boblarga bosqichma-bosqich munosabat bildirilgan.

“Azhaviya” asarining nomi Qur’oni karimda kelgan “Az-Zuho” – “tong yorishuvi” so’zidagi falsafiy ma’no – ong yorishuvini anglatadi. Inson ongi yorishganda gunoh va savobni farqlaydi.

Risola (aslida beshta, ammo uchinchi bobdan keyin qo’shimcha bob orttirilgani munosabati bilan) oltita bobdan iborat.

Biz ushbu tadqiqotimizda risolada bayon qilingan falsafiy-tasavvufiy masalalar haqida so’z yuritganmiz.

Kalit so'zlar: Ma’od, ruh, tanosux (ko‘chish), xayulo (materiya).

274

Abstract

In this article, one of our famous ancestors, the encyclopedist, it is one of the philosophical and philological works of Sheikh Ur-Rais Abu Ali Ibn Sina the treatise “Illumination (Azhaviya)” was analyzed. For example, in the work of a scientist a step-by- step approach to the given chapters is given.

The name of the work “Azhaviya” is the philosophical meaning of the word “Az-Zuho” – “morning light” found in the Holy Qur’an - the light of consciousness. When the human mind is enlightened, it distinguishes between sin and merit.

The treatise (originally five, but due to the addition of an additional chapter after the third chapter) consists of six chapters.

In this study, we discussed the philosophical and mystical issues described in the pamphlet.

Keywords: Maad, soul, tanosukh (migration), khayulo (matter).

Abu Ali ibn Sinoning “Yorug‘lanish” asari arab tilida yozilgan bo‘lib, XII asrda forschaga, so‘ng g‘arb tillariga tarjima qilingan. Asosiy matn qo‘lyozmalari Angliyada Badlean kutubxonasida, Toshkent va Dushanbe Sharq qo‘lyozmalari xazinasida saqlanmoqda. Bu risolani akademik Ziyo Bunyodovning shogirdi, TDSHI tadqiqotchisi Sevinch Bagirova arab tilidan rus tiliga tarjima qilgan. Shubingdek, ushbu asarni fors-tojik tilidan rus tiliga sharqshunos M.Komilov tarjima qilgan bo‘lib, shu tarjima asosida risola tahlil qilingan. Shu asarda ilk marta Ibn Sinoning o‘zi yozgan va shogirdi Abdulvohid Juzjoniy davom ettirgan tarjimayi holi bizgacha yetib kelgan. “Yorug‘lanish (“Azhaviya”) deb atalgan ushbu risola shayx ur-ra’is Abu Ali ibn Sino tomonidan Abu Bakr ibn Muhammadga atab yozilgan. Ibn Sinoning o‘zi shu asarida quyidagicha yozgan: “Qodir Olloh shayx ul-aminning ruhi poklarini ikki dunyo ilmi nurlari bilan yoritib, dilini tabiiy illatlardan saqlasin! Unga uzoq umr ato etsinki, u chinakam baxt-saodatga erisha olsin! Ikki dunyo ishlarida unga omadlar yor bo‘lsin!..”¹

“Azhaviya” asarining nomi Qur‘oni karimda kelgan “Az-Zuho” – “tong yorishuvi” so‘zidagi falsafiy ma‘no – ong yorishuvini anglatadi. Inson ongi yorishganda gunoh va savobni farqlaydi.

Risola (aslida beshta, ammo uchinchi bobdan keyin qo‘shimcha bob orttirilgani munosabati bilan) oltita bobdan iborat bo‘lib, ular quyidagicha nomlanadi:

- Ma‘odning mohiyati
- Ma‘od ta‘rifidagi ixtiloflar
- Yanglish ta‘limotlar tanqidi
- “Ruhning ko‘chishi” g‘oyasi tarafdorlarini tanqid qilish
- Inson mohiyati haqida
- Inson mohiyatining o‘lmasligi va abadiyligi haqida.

“Ma‘od” arabcha “a‘vd” (qaytmoq) so‘zining o‘zagidan olingan bo‘lib, biron narsaning joylashgan o‘rni yoki holatidan ajralib, yana o‘shanga qaytishi tushuniladi. Xiradmandlar ma‘odning mohiyatida odamzodning o‘limdan keyingi holatini tushunishgan².

Olimning fikricha, odamlar orasida ma‘od haqida turlicha tushunchalar bor, ya‘ni ma‘od shunday joyki, odam vafotidan keyin shu yerda joylashadi, bu – haqiqat. Lekin uning o‘rni hozirgidan boshqa joyda. Odamlarning ruhi u dunyodan kelgan, odam o‘lgach, ruh yana o‘z dunyosiga qaytib ketadi. Ana shu tushuncha bo‘yicha agar ruh gunohlardan pok bo‘lsa, “jannat”dan joy oladi, agar gunohlar yuki ostida qolsa, “do‘zax”ga tushadi.

Ikkinchi bobda ma‘od atrofida xilma-xil qarashlar olg‘a suriladi. Xususan, kishilarning aql va ziyraklik jihatdan uncha kuchli bo‘lmagan ozroq qismi ma‘od borligini inkor qilgan. Aqli raso kishilarning barchasi uning barhaqligiga iymon keltirgan. Bularni bir necha guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhdagilar “qaytish” faqat badan (tana)ga tegishli deb ruh mavjudligini inkor etgan. Boshqa guruhga esa narigi dunyoga ham badan, ham ruh qaytadi deb hisoblagan.

Ibn Sinoga ko‘ra, “faqat tana qaytadi” deganlar dialektika tarafdorlari bo‘lib, haqiqiy ilmdan xabarsiz. Ular odam tanadan iborat, hayot va insoniy xususiyatlar tanada hosil qilingan ikkita

¹ Abu Ali ibn Sino. Yorug‘lanish // Jahon adabiyoti. – 2017. – №1. – B 73.

² O‘sha asar. – B 75.

o'zgaruvchi sifat, o'lim esa ushbu ikki sifatning bir-biridan ajralishi, deb o'ylaydi. Bunday qarashga qarshi bo'lgan guruhdagilar oxirat (bani basharning qiyomatda qirilib yo'q bo'lishidan keyingi hayot)da qayta tirilish ro'y berib, shu dunyoda yashab o'tgan jami odam ahli tanasiga hayot va odamiylik suvrati qaytadi, deb hisoblaydi. Qayta tirilgan insonlar ikki guruhga ajratiladi. Birinchisi – savoblilar, ikkinchisi – gunohkorlar. Savoblilar narigi dunyoda yaxshi hayotga erishadi, gunohkorlar esa qiynoqqa mahkum.

Tana va ruh birgalikda qaytadi deguvchilar: “Tana ruh uchun yaratilgan, ruh yana qaytsa, faqat o'z tanasiga qaytadi, dil, ruh – latif jism” deb hisoblashgan. Boshqalari esa dil shaffof tanadan iborat deydi. Agar ruh gunohlardan xoli, savobga to'la bo'lsa, oxiratda (ikkilamchi tiriklikda) ikki tomonlama: ruhiy va jismoniy jihatdan rohat-farog'atga erishadi³.

Ruhiy xotirjamlik deganda, aql-idrok vositasida farishtalar olamini mushohada qilib, ular bilan qo'shilish va najot topish tushuniladi. Agar ruh gunohlar bilan kirlangan bo'lsa, (unga) beriladigan jazo ham ruhiy, ham jismoniy azob bilan kechadi. Jismoniy azob deganda o'tda kuyish, sovuqda qotish, zahar va boshqa narsalardan qiynalish, ruhiy azobga esa afsus-nadomat chekish, haqoratlanish, qo'rquv va boshqalar kiradi.

Uchinchi bobga ko'ra shariat ahkomlarini tuzuvchi o'z ta'limoti ma'nosini shunday chuqur tushuntirishi kerakki, u har qanday xato va noaniqliklardan xoli bo'lsin, har bir kishi masala ma'nosini tushunib ola bilsin va bunda ortiqcha tortishuvga hojat qolmasin. Bundan ma'lumki, diniy aqidalar tabiati shunday: uni barchaga birdek tushuntirib bo'lmaydi. Diniy aqidalarning odamlar anglab yetadigan qismi payg'ambarlar tomonidan tushuntiriladi, anglashilishi qiyin bo'lgan jihatlari esa qiyoslash va shunga o'xshash tamoyillar orqali yoritib beriladi.

276

Odam haqida so'z ketganda odam xayulo (materiya) deb atalgan xomashyo modda tufayli odamga aylanmaganligig, balki u jism ichiga joylashtirilgan ruh tufayli odamga aylangani chiroyli dalillab o'tilgan. San'at, madaniyat, ilm-fan kabi inson faoliyatiga bog'liq narsalar moddaning o'ziga emas, balki uning yashash shakllariga bog'liq hodisalardir. Agar shakl yo'qolsa, uning moddasi ham yo'qoladi yoki boshqa unsurga aylanadi. Agar mana shu modda (substrat)dan boshqa odam shakli yaratilsa, uning mohiyati ham boshqa odamga aylanadi yoki birinchi odamdan ikkinchisiga o'sha modda qoladi, shakl esa o'zgaradi. Odam modda tufayli emas, ruh tufayli odamdir. Maqto'v, malomat, savobli amallar evaziga olinadigan ajr yoki gunoh tufayli tortiladigan azob moddaga emas, ruhga bog'liq. Yuqoridagi sifatlar odam moddasiga emas, ruhga xos, deyilsa, oxiratda beriladigan jazo gunohlar uchun, ajr-mukofot esa savoblar uchun, degan gap noto'g'ridek tuyuladi.

Olim bu fikrini “Ishq risolasi” nomli asarida ham to'ldirgan⁴. Risolaning ikkinchi faslida bayon qilinishicha, oddiy jonsiz mavjudotlar uch toifaga bo'linadi: Haqiqiy hayulo (dastlabki modda); O'z-o'zicha mavjud bo'la olmaydigan shakllar; Ikkinchi darajali (juz'iy) narsalar (aktsidensiya). Ana shu shakllar bilan juz'iy narsalarning farqi shundan iboratki, modda shaklda mohiyat kasb etadi. Shuning uchun ham qadimgi ilohiyotchilar shaklni mohiyat jinsining bir turiga kiritish kerak, deb hisoblar edi. Chunki shakl mustaqil ravishda mavjud bo'lgan mohiyat (javhar)ning uzviy qismi hisoblanadi. U o'z-o'zicha alohida mavjud bo'la olmaydi. Chunki dastlabki

³ Abu Ali ibn Sino. Yorug'lanish // Jahon adabiyoti. – 2017. – №1. – B 76.

⁴ <https://kh-davron.uz/yangiliklar/abu-ali-ibn-sino-ishq-haqida-risola>.

moddaning tabiati (holati) shunday edi. Shunga qaramay, modda javhari mohiyatga tegishli ekanligini inkor qilib bo'lmaydi. Chunki u tabiatan o'zidan-o'zi mavjud bo'luvchi mohiyatlarning bir bo'lagi hisoblanadi. Bundan tashqari, ilohiyotchilar ilk modda (hayulo)ga nisbatan shaklda ko'proq mohiyatga oid xususiyatlar mavjud, deb bilishadi. Buning sababi shundan iboratki, modda javhari shu javharga shakl bo'lgani uchun ham mavjuddir: agar shakl mavjud bo'lsa, javhar ham bil-fe'l mavjud bo'lishi kerak. Shunga ko'ra, bil-quvva shakl bil-fe'lning bir turi sifatida mavjuddir, deyiladi.

Inson mohiyati haqidagi bobda ham shu fukrlar to'laroq davom etganini ko'ramiz. Ya'ni odam o'zi haqida o'ylaganda yurak borligini sezmaydi, sezganda ham uning qanaqaligi, qayerda joylashishini bilmaydi yoki ko'krakning chap tomonida joylashgan bir parcha go'shtni yurak deb hisoblaydi. Bir narsaning muayyan bir odam uchun noaniq yoki aniq bo'lishi va narsa mohiyatining bir qismi noaniq bo'lib, o'zi esa aniq bo'lishi mumkin emas; aksincha, qismni bilish uchun butunni o'rganish talab etiladi. Tekshirishlardan shu narsa aniqlanganki, odamni odam qilib turgan sifatlar, xislatlar, fazilatlar uning mohiyatidir. Odamdagi ana shu mohiyat (aql-idrok, bilim, ma'rifat, adolat, bag'rikenglik, bunyodkorlik) uni aziz va mukarram qiladi. Narsalarni anglash, kasb-hunar egallash va o'zini bilish (hatto o'z borlig'i haqida o'ylaganda badandagi a'zolarini "unutib" qo'ysa ham) ruh mohiyatidir. Yomonlikdan saqlanish, ezgulikka intilish, yaxshilikdan sevinish, qayg'u-kulfatlardan iztirob chekish yoki lazzatdan kayf-safo hissini tuyish – barchasi ruh javhariga bog'liq. Odamning qayg'u-alam chekishi yoki kayf-safoga moyilligi, muhabbati yoki nafrati, biron narsaga bog'lanib qolishi kabi holatlar inson mohiyatiga bog'liq.

277

Beshinchi bobda ibn Sino Arastuning "Ruh haqida" kitobiga yozgan sharhida ruh (jon)ning mohiyat (substansiya) ekanligi to'g'risida alohida to'xtalganligini, bu bobda notiq (gapiruvchi) odamning ruhi moddaga va tanaga bog'liq emasligi haqida qisqacha aytib o'tgan. Buni turli shakllarda sharhlashga harakat qilgan⁵.

Uningcha, tanada tamom bo'lmaydigan cheksiz kuch yo'q. Ruhning kuch-quvvati esa cheksizdir. Zero, ruh orqali anglanadigan aqliy tushunchalar va miqdoriy mohiyatlar son-sanog'i yo'q narsalardir. Ruhda ularni anglash qobiliyati bor. Bundan tashqari, tabiat haqidagi fan, ilohiy ilm va ruhiy quvvatlar narsalarni anglashda bir xil kuchga ega. Shu narsa isbot qilinganki, ruh narsalarni anglashda ado bo'lmas quvvat sohibi va u tana ham emas, tanada joylashgan ham emas. Tanadagi har qanday quvvat o'lchovli bo'lib, uning o'zi ham chekli-chegarali ekanligi isbot qilingan. Ruh bo'linmas tananing bir qismida joylashishi mumkin emas. Chunki bu qism (agar mavjud bo'lsa) uning bo'linmas bir zarrasi yoki nuqtasi hisoblanadi. Ammo handasa va tabiat fanlarida bo'linmaydigan zarraning yo'qligi aytilgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, U haqiqatni bilish uchun bilimga ega bolish kerakligi, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelmasligi, inson o'z bilimining haqiqiylikini bilishi uchun mantiqni ham bilishi zarurligini uqtiradi. Ibn Sinoning ta'lim metodlari haqidagi ta'limoti asosida ham bilimlarni egallashda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak degan g'oya yotadi. Ibn Sino ta'limotida bilishda qaysi metodlardan foydalanilmasin – u og'zaki ifodami, bilimlarni tushuntirishmi, turli ko'rinishdagi suhbatmi, tajribalarmi, baribir haqiqiy bilim

⁵ Abu Ali ibn Sino. Yorug'lanish // Jahon adabiyoti. – 2017. – №1. – B 92.

hosil qilish mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad bo`lgan.

U o`z ilmi, merosi bilan o`rta asr sharqining ilmiy madaniy qudratini butun dunyoga namoyon qildi. Insoniyat madaniyatining rivojiga ulkan hissa qoshgan.

Shuning uchun ham Ibn Sino jahon madaniyatining buyuk siymosi, insoniyat buyuk tabib, eng katta faylasuf, tabiatshunos, insonshunos, mashhur ensiklopedist olim sifatida tan olingan.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati

1. Abu Ali ibn Sino. Yoruglanish // Jahon adabiyoti. – 2017. – №1. – B 73–94.
2. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/abu-ali-ibn-sino-ishq-haqida-risola>.
3. Sadriddin Ayniy. Shayxurrais Abu Ali ibn Sino. – Stalinobod, 1939.
4. Abu Ali ibn Sino. Falsafiy qissalar. To`plovchi va tarjimon A.Irisov. – Toshkent,1963.